

Istiqbolli loyihalar, yangi tashabbus va g'oyalar xalqimiz farovonligining asosidir



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish maqsadida 30 yanvar kuni Jizzax viloyatiga keldi.

Xalqimiz davlatimiz rahbarining viloyatlarga tashrifini alohida qiziqish bilan kuzatib boradi. Zero, bu kabi tashriflar chog'ida oddiy odamlar dilidagi gaplar aytiladi, hayotiy muammolarga yechim topiladi, yangi tashabbuslar, g'oyalar amalga oshishiga turtki beriladi.

Prezidentimizning Jizzax viloyatiga bu galgi tashrifi ham ana shunday ko'tarinki ruhda boshlandi.

Shavkat Mirziyoyev dastlab Forish tumanida atom elektr stansiyasini qurish uchun muhandislik tadqiqotlari olib borilayotgan maydonlardan birini ko'zdan kechirdi.

Ma'lumki, tinch maqsadlarda foydalanish uchun mamlakatimizda ilk bor atom elektr stansiyasi qurilishi rejalashtirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi huzurida Atom energetikasini rivojlantirish agentligi tashkil etilgan. Xorijiy loyihalar soni va ko'lami bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadigan "Rosatom" korporatsiyasi bilan kelishuvga erishilgan.

Ushbu stansiya har biri 1 ming 200 megavatt quvvatga ega ikkita, "3+" avlodiga mansub eng zamonaviy va xavfsiz energiya blokidan iborat bo'ladi. Ular Xalqaro atom energiyasi agentligining barcha xavfsizlik talablariga javob beradi.

Atom elektr stansiyasining ishga tushirilishi natijasida milliardlab kub metr tabiiy gaz iqtisod qilinadi, atmosferaga karbonad angidrid chiqarilishi yiliga 14 million tonnagacha, azot oksidlari chiqarilishi 36 ming tonnaga kamayadi. Atom energiyasi ekologik toza bo'lib, is gazi hosil qilmaydi.

Prezidentimiz tadqiqot ishlarining borishi bilan qiziqdi, "O'zatom" agentligi va "Rosatom" korporatsiyasi rahbarlari bilan suhbatlashdi.

Bu ulkan loyiha Rossiya bilan strategik sherikligimizning yangi yo'nalishi. Mamlakatimiz sanoati rivojlanyapti, aholi soni o'syapti. Hali oldinda yana katta rejalarimiz bor. Bular uchun barqaror energiya ta'minoti kerak. Atom elektr stansiyasi energiya manbalari

cheklangan sharoitda ana shunday imkoniyat yaratadi, iqtisodiyotni rivojlantirishga, odamlarni ish bilan ta'minlashga xizmat qiladi, dedi davlatimiz rahbari.

Atom elektr stansiyasini aniq hisob-kitob va puxta tayyorgarlik bilan barpo etish, shunday inshootlar qurilishiga oid xorijiy tajribani o'rganish zarurligi ta'kidlandi.

Bizning atom elektr stansiyamiz boshqalaridan yaxshi, sifatli va xavfsiz bo'lishi kerak, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ushbu sohaga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash borasidagi ishlar haqida ham ma'lumot berildi. Hozirda O'zbekistonlik 30 nafar talaba "Moskva muhandislik-fizika instituti" milliy tadqiqot yadro universitetida ta'lim olmoqda. Mazkur bilim yurtining Toshkentda tashkil etilayotgan filiali kelgusi o'quv yilidan ilk talabalarni qabul qiladi. Bu yoshlar yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishadi va atom elektr stansiyasining xavfsiz ishlashini ta'minlaydi.

Shu yerda Jizzax viloyatining mineral xomashyo bazasini kengaytirish, Forish tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, turizm salohiyati va lalmi yerlardan samarali foydalanishga qaratilgan loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Forish – imkoniyatlari bo'yicha eng boy tumanlardan biri. Lekin hozir boshqa hududlardan biroz orqada. Bu yerning qishloq xo'jaligi, geologiya, qayta ishlash sohalaridagi imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanilsa, tuman iqtisodiyotini bir necha barobar yuksaltirish mumkin, dedi Prezident.

Masalan, Jizzax viloyatida bazalt, rux, qo'rg'oshin, sement, gips, kvars, pardozbop toshlar kabi tabiiy boyliklar ko'p. Geologik va iqtisodiy tahlillar asosida ularni qayta ishlashni tashkil etish, mahalliy byudjetga katta daromad keltirishi va aholini ish bilan ta'minlash mumkinligi ta'kidlandi. Buning uchun "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasi imkoniyatlaridan foydalanish, tadbirkorlarga keng yo'l berish kerakligi qayd etildi.

Yana bir katta imkoniyat – Forish tumani hududining kengligidir. Avvalgi tashrif chog'ida berilgan topshiriqqa asosan bu yerda suvni to'plash va undan tejab foydalanishga qaratilgan ishlar amalga oshirildi. Natijada tumanda qo'shimcha 50 ming gektar sug'oriladigan yer paydo bo'ldi. Prezidentimiz bu joylar ilgari foydalanilmagan hosildor tuproq ekanini ta'kidlab, unga talab yuqori mahsulotlar ekish, aholi daromadini ko'paytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shuningdek, viloyatdagi suv havzalarida baliq yetishtirishni ko'paytirish, cho'l tumanlarda chorvachilikni rivojlantirish, sut va junni qayta ishlash korxonalari tashkil etish zarurligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari jizzaxlik nuroniylar bilan muloqot qildi.

Suhbatda mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, aholi turmush darajasini yuksaltirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'z bordi.

Yurtimizning hamma joylarida yangi zavodlar, uy-joylar, maktablar qurilyapti. Xalqimizning yashash sharoiti, talablari ham o'sib boryapti. Bu ehtiyojlar uchun hozircha tabiiy boyliklarimizdan foydalanyapmiz, lekin ularning zaxirasi cheksiz emas. Shuning uchun muqobil energiya manbalarini yaratishimiz zarur, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ushbu atom elektr stansiyasini qurishda barcha xalqaro talablarga qat'iy rioya qilinishi, bunday stansiyalardan ko'plab mamlakatlarda keng foydalanilayotgani qayd etildi.

Biz bu loyihaning xavfsizligi, iqtisodiy zarurligiga ishonchimiz komil bo'lgani uchun qurishga kirishdik. Ertangi kunni o'ylab ish tutmasak, rivojlanishdan orqada qolib ketamiz, deb ta'kidladi Prezidentimiz.

Prezidentimiz tumandagi bazalt toshini qayta ishlab, bazalt tolasi va armaturasi ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan "Mega Invest Industrial" qo'shma korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

2017 yil dekabrda ish boshlagan korxonada faoliyati 3 bosqichda yo'lga qo'yiladi. Ayni paytda birinchi va ikkinchi bosqichlar ishga tushirilgan. Buning uchun Buyuk Britaniyaning "Leigh Barrier" kompaniyasining 11 million dollar hamda tijorat bankining 26 million dollar kredit mablag'i yo'naltirildi. Germaniya, Fransiya, Italiya, Rossiya, Turkiya kabi davlatlardan zamonaviy nou-xau texnologiyalari keltirib o'rnatildi. Natijada 225 nafar aholining bandligi ta'minlandi. 2018 yilda bu yerda ming tonna bazalt armaturasi va setkalar ishlab chiqarildi. Korxonada to'liq quvvat ishlay boshlagach, yiliga 4 ming tonna bazalt tolasi va 4800 tonna armatura tayyorlanadi.

Bazalt armaturasining metall armaturadan farqi shundaki, u 8 barobar yengil, 3 barobar mustahkam, zanglamaydi, o'zidan elektr tokini o'tkazmaydi. Shuningdek, metall armaturadan 30 foiz arzon hamda 100 yilgacha o'z xususiyatini yo'qotmaydi. U mintaqamizda yagona va MDH davlatlarida ikkinchi shunday korxonadir.

Davlatimiz rahbari korxonadagi ish jarayonini ko'zdan kechirdi. Bu yerda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yanada oshirish, tannarxini kamaytirish, hajmini ko'paytirish borasida tizimli ishlarni amalga oshirish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Prezidentimiz kunning ikkinchi yarmida Mirzacho'l tumaniga keldi.

Shavkat Mirziyoyev Mirzacho'l tumani G'alaba mahallasida "Obod qishloq" dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlarni ko'zdan kechirdi.

Cho'lida joylashgan ushbu tuman uzoq yillar e'tibordan chetda qolib ketgan edi. Infratuzilma obyektlari eskirib, odamlar turmushida qiyinchiliklar yuzaga kelgandi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Obod qishloq" dasturi qabul qilingach, ko'plab hududlar singari G'alaba mahallasi ham tom ma'noda obod bo'ldi. Yangi uy-joylar, ijtimoiy obyektlar qurildi, yo'l bo'ylari va maydonlar obodonlashtirildi. Bugun bu joylar yangi qiyofa kasb etgan.

Prezidentimiz hududdagi "Mirzacho'l tikuvchilik majmuasi" mas'uliyati cheklangan jamiyatida bo'ldi.

Mahalla hududida dastur doirasida sobiq paxta tozalash korxonasi bo'sh turgan binosi rekonstruksiya qilinib, ushbu loyihani amalga oshirish uchun 3 milliard so'mlik qurilish, ta'mirlash va jihozlash ishlari bajarildi.

Eski uylardan zamonaviy uylarga ko'chib chiqqan oilalar uy bekalari va kasb-hunar kollejarini bitirgan qizlar "Tadbirkor ayol" uyushmasi ko'magida tikuvchilik kasbiga qayta tayyorlanib, ish bilan ta'minlandi.

Jamoa "O'zbekpaxtasanoat" tizimidagi va boshqa korxonalarga shartnoma asosida maxsus kiyimlar tikib berayotir. Ayni paytda korxonada erkaklar va ayollar uchun jinsi matosidan kiyim-kechak ham tikilmoqda.

Mirzacho'lni yanada obod qilishga doir ishlarni bundan keyin ham tizimli davom ettiramiz. Maqsadimiz odamlarni rozi qilish, ularga munosib turmush sharoiti yaratish, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz G'alaba mahallasi Barokat ko'chasida yashovchi Maqsud Misirov xonadonida bo'ldi. Xonadon egalarini yangi uy bilan tabrikladi. Qayd etish kerakki, M.Misirovning turmush o'rtog'i Ma'rifat Haydarova va qizi Mohinur Meliqulova "Mirzacho'l tikuvchilik majmuasi"da mehnat qiladi. Ular yaratilgan zamonaviy sharoitlar uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildirdi.

Davlatimiz rahbari Mirzacho'l tumanidagi O'zbek – qozoq milliy madaniy markazi faoliyati bilan tanishdi.

Mirzacho'lida yashayotgan qozoq millatiga mansub yurtdoshlarimizning urf-odat va an'analarini asrashi va rivojlantirishi uchun zarur sharoit yaratilgan. Xususan, bu yerda Qozoq milliy teatri tashkil etilgan. Yaqinda teatr binosi rekonstruksiya qilinib, ko'rkam

inshootga aylantirildi. Milliy cholg'uchilik, ashula, raqs, tasviriy san'at kabi to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbek – qozoq milliy madaniy markazining tashkil etilgani xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlikning yorqin ifodasidir. Markazda madaniy aloqalarni kuchaytirish, yoshlarni baynalmilal do'stlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezident mazkur teatrning qayta tiklanishi va O'zbek – qozoq milliy madaniy markazining tashkil etilishi qardosh xalqlarimiz hamjihatligida muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidladi. Bu maskan hududdagi ijodiy, ma'rifiy tashkilotlarni, ziyolilarni, yoshlarni ezgu maqsad yo'lida birlashtirishi zarurligini qayd etdi.

O'zbek va qozoq xalqlari san'atidan namunalar ijro etildi.

Shavkat Mirziyoyev Mirzacho'l tumanidagi "Binafsha" davlat maktabgacha ta'lim muassasasida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

2018 yilda "Obod qishloq" dasturi asosida kapital ta'mirlangan bog'cha 280 o'ringa mo'ljallangan. Bu yerda bolajonlarning zamonaviy ta'lim-tarbiya olishi uchun barcha sharoit yaratildi. Mashg'ulot xonalari bolalarni maktabga tayyorlashdagi eng ilg'or metodikalar asosida zamonaviy inventarlar bilan jihozlangan. Kichik sport va o'yin maydonchasi qurilgan. Turli interfaol o'yinlar, aqlni charxlashga ko'maklashuvchi jihozlar bolalarda dastlabki bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, farzandlarimizga yaxshi tarbiya berish doimiy e'tiborimizda bo'ladi. Bog'chaga borgan bolaning sog'lig'i mustahkam, dunyoqarashi keng, o'ziga ishonchi yuqori bo'ladi, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz bu boradagi ishlarni izchil davom ettirish, davlat va xususiy bog'chalar tashkil etish orqali bolalar qamrovini ko'paytirish, shu bilan birga, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish zarurligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari Mirzacho'l tumanidagi ko'p tarmoqli markaziy poliklinikani ko'zdan kechirdi.

Aytish kerakki, mazkur tibbiyot muassasasi mamlakatimizda namunali ko'p tarmoqli markaziy poliklinika sifatida ish boshlagan.

1976 yilda qurilgan bu poliklinika binosi shu kunga qadar kapital ta'mirlanmagan edi. "Obod qishloq" dasturi asosida muassasa uchun yangi bino qurildi. 250 qatnovga mo'ljallangan poliklinikada 100 dan ziyod ish o'rni yaratildi.

Zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlangan poliklinikada jarroh, pediater, UTT shifokori, stomatolog, terapevt, LOR, oftalmolog, travmatolog, nevropatolog, psixiatr kabi mutaxassislar aholiga tibbiy xizmat ko'rsatadi.

Ko'p tarmoqli markaziy poliklinika "Salomatlik-3" loyihasi doirasida veloergometr, gastrofibroskop, raqamli rentgen, UTT apparati, bioximik analizator, avtoklaf, sentrafuga, EKG, stomatologik jamlanma, audometr, avtarefroktoometr kabi tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan.

Yangi binoda aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida elektron ro'yxatga olish tizimi joriy qilindi. Ayollar maslahatxonasi, kunduzgi statsionar, ijtimoiy dorixona faoliyati yo'lga qo'yildi.

Prezidentimiz poliklinikadagi sharoitlarni ko'zdan kechirar ekan, aholini kasalliklar profilaktikasi bilan to'liq qamrab olish, odamlar boshqa joyga davo izlab borib ovora bo'lmasligi kerakligini ta'kidladi. Aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, shifokorlar malakasini oshirish yuzasidan zarur tavsiyalar berdi.

Davlatimiz rahbari yangi qurilgan Mirzacho'l tumani Davlat xizmatlari markazida bo'ldi.

Bundan to'qqiz oy oldin mazkur markaz o'rni tashlandiq joy bo'lgan, o'tgan qisqa vaqtda zamonaviy markaz binosi qad rostladi, qurilish va bunyodkorlik ishlariga 5 milliard 740 million so'm mablag' sarflandi.

Markaz bir kunda 200-250 mijozga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega. Endilikda bu yerda tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish, notarius, FHDYO bo'limi, pasport berish va almashtirish kabi 103 xizmat turi ko'rsatiladi. Shuningdek, markazda kutubxona, nikohdan o'tuvchilar uchun tantanalar zali, investorlar xonasi tashkil qilingan, bundan tashqari, haydovchilik guvohnomasini rasmiylashtirish uchun eng so'nggi uskunalar bilan jixozlangan.

"Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyiliga muvofiq, yangi tizim Prezidentimizning "Xalq davlat idoralariga emas – davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", degan ezgu g'oyasini so'zsiz amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Davlat xizmatlari faoliyatining yo'lga qo'yilishi fuqarolarning ham vaqti, ham mablag'ini tejashga xizmat qiladi. Aholi tomonidan qilinayotgan har bir murojaat e'tiborda bo'ladi, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari "Mirzacho'l teks" MCHJ faoliyati bilan tanishdi.

Korxonada faoliyati uch bosqichli loyiha asosida yo'lga qo'yiladi. Birinchi bosqich 2018 yil

dekabr oyida ishga tushirilgan. Xitoy, Turkiyadan 100 dona tikuv dastgohi keltirilib o'rnatildi. Ayni paytda bu yerda import o'rnini bosuvchi eksportbop mahsulotlar, xususan, jinsi shimlar tikilmoqda. 70 dan ziyod xotin-qiz ish bilan ta'minlangan.

Loyihaning 2-bosqichida jinsi mato to'qish yo'lga qo'yiladi va 240 ish o'rni yaratiladi. 3-bosqichda ip-kalava yigiruv amaliyoti ishga tushiriladi. 2021 yilgacha korxonaga to'liq quvvat bilan ishlashi kutilmoqda. Bu tumanda 800 ga yaqin ish o'rni yaratish imkonini beradi.

Shavkat Mirziyoyev korxonaga faoliyatiga doir zarur ko'rsatmalarni berdi. Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashga doimiy e'tibor qaratish zarurligini ta'kidladi.

Shu yerning o'zida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish loyihalari taqdimoti bo'lib o'tdi. Xususan, mamlakatimizning Rossiya Federatsiyasi, Fransiya va Belarus Respublikalaridagi elchixonalaridan viloyatga jalb qilingan investitsiyalar taqdimoti o'tkazildi, shuningdek, Janubiy Koreya, Turkiya, Hindiston, Xitoy kabi davlatlardan kelgan investorlar o'z loyihalari haqida davlatimiz rahbariga so'zlab berdi.

Taqdimotga ko'ra, rossiyalik investorlar yoritish uskunalari, avtomobil ehtiyot qismlari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, fransiyalik ishbiarmonlar esa arxitektura oynalari ishlab chiqarish, mevani qayta ishlashga qiziqish bildirmoqda. Shuningdek, Fransiya anor, qovun, qizilmiya ildizini eksport qilish rejalashtirilgan.

Prezidentimizning Jizzax viloyatiga tashrifi davom etmoqda.

[**O'ZA**](#)